

BALIQLARNING KIPRIKLI INFUZORIYALAR KELTIRIB
CHIQARADIGAN KASALLIKLARI

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti
assistenti: Shabbozov Xursanbek
Talaba: Vohidov Sherzodbek*

Annotatsiya. Ushbu maqolada baliqchilik xo'jaliklarida ko'p uchraydigan Xilodonellyoz kasalligi, uning kelib chiqish sabablari, tarqalishi, davolash va oldini olish choralar, kiprikli infuzoriyalar, ularni tarqalishi, baliqlarga keltiradigan zararlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Xilodonellyoz, xilodonella, infuzoriyalar, parazit, baliqchilik xo'jaliklari, invaziya, ikki komponentli eritma.

Kirish: Baliq kasalliklarini davolash – baliqchilikning eng muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Bu soha orqali baliqlarda uchraydigan turli xildagi kasalliklarni kelib chiqishi, davolash va oldini olish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi va amaliyotga tadbiq qilinadi. Davolash natijasida baliqlarning kasallik tufayli nobud bo'lish ko'rsatkichi kamayadi va baliq yetishtiruvchi xo'jaliklarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan katta iqtisodiy zararning oldi olinadi. Baliq kasalliklarini davolash sohasi hozirgi kunda dunyo miqyosida sezilarli javishda rivojlanib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi

Hozirgi kunda baliq kasalliklarini o'rganish va davolash choralarini topish sohasida ko'plab izlanishlar olib borilmoqda va yaxshi natijalarga erishimoqda. Lekin shunga qaramasdan ba'zi baliq kasalliklarining davolash usullari haligacha topilgani yo'q. Bu esa sohada qilinishi kerak bo'lgan ishlar borligi, kamchiliklar ustida ko'proq ishslash kerakligini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda yurtimizda baliq kasalliklarini davolash sohasi to'g'ri yo'lga qo'yilmagan. Buning natijasida baliq yetishtiruvchi xo'jaliklarda turli xildagi kasalliklarning kelib chiqishi, uning avj olishi, boshqa xo'jaliklarga tarqalib ketishi, yetishtirilayotgan baliqlarning katta qismining nobud bo'lishi, oqibatda esa xo'jalikning katta iqtisodiy zarar ko'rishi kuzatilishi mumkin.

Muhokama

Kiprikli infuzoriyalar keltirib chiqaradigan kasalliklar ixtiopatalogiyada katta o'rinni egallab, Ciliata kiprikli infuzoriyalari keltirib chiqaradi. Ushbu guruh sodda hayvonlari birmuncha murakkab tuzilgan. Harakatlanish organlari bo'lib, ko'p sonli kipriklar xizmat qiladi. Ular ikki yo'l bilan ko'payadi. Jinssiz ko'payishi ikkiga yoki ko'p bo'linish orqali sodir bo'ladi va konyugatsiya yo'li bilan ko'payadi.^[1]

Xilodonellyoz – chuchuk suv baliqlarining protozooy kasalliklari bo'lib, Hypostomatida turkumiga mansub Chilodonnelidae oilasi infuzoriyalarining

parazitlari chiqaradi.^[3] Parazit chuchuk suv va akvarium baliqlarining jabrasida, terisida, suzgichlarida va tananing boshqa qismlarida parazitlik qiladi.

Invaziya barcha baliqchilik xo'jaliklarida tarqalgan. Rossiyaning markaziy va shimoliy hududlarida ko'p uchraydi. Tabiiy suv havzalarida deyarli barcha chuchuk suv baliqlarining turlari kasallikning tashuvchisi hisoblanadi. Xilodonellyoz kasalligining ommaviy uchrashi baliqchilik xo'jaliklarida baliqlarni yuqori zichlikda boqqanda kuzatiladi, baliqlarning ko'p miqdorda o'lishi katta iqtisodiy zararni keltirib chiqaradi.^[3]

Xilodonellaning xo'jayin tanlashda o'ziga xosligi yo'q. O'stirish hovuzlaridagi baliqlarning hamma turlari, shu jumladan losossimonlar va bakrasimonlar ham kasallanadi. Birinchi navbatda, kam ovqotlanadigan va oriq baliqlar zararlanadi. Kasallik qish vaqtida 2 yoshli baliqlarda tez-tez uchraydi.^[4] Baliqlarning boshqa yoshdagi guruhlari (tovar baliqlari, yosh remontli va ishlab chiqaruvchi) parazit tashuvchi bo'lishi mumkin va suv havzalariga invaziyaning tarqalishiga yordam beradi. Ba'zan kasallik yilning boshqa fasllarida ham qayd etiladi: kech kuz va bahorda. Yozda kasallik namoyon bo'lmaydi, ehtimol bu vaqtda ular tinim davridagi sistaga aylanadi.

Suv harorati, gaz va tuz tarkibining har xil buzilishi, suv havzalarining organik ifloslanishi hamda baliqlarning qishlash uchun fiziologik tayyorgarligining kuchsizligi baliqlarning ommaviy zararlanishiga sabab bo'ladi.

Kasallik belgilari va patogenezi. Ko'plab baliqlar jabralarida, terisi va suzgichlarida joylashib, xo'jayin epiteliy hujayralari bilan oziqlanadi. Tanada shilliqlar ko'payadi va nafas olish keskin buziladi.

Qish vaqtida kasallik birinchi navbatda baliqlarning xatti-harakatlariga ta'sir qiladi. Ular yuqoriga ko'tariladi va bir joyga to'planadi.^[2]

Baliqlar tanasida patalogik jarayonlarning rivojlanishi bilan kulrang shilimshiqlar paydo bo'ladi. Jabra yaproqchalari shishadi, qalinlashib ketadi, ba'zan jabralarning uzluksiz giperimiyasi kuzatiladi. Ko'pincha xilodonellyozning avj olishi baliqlarning ommaviy o'lishi bilan yakunlanadi.

Natija

Davolash. Qish vaqtlarida xlodonellyoz avj olganda baliqlarga dori preparatlarini to'g'ridan-to'g'ri hovuzlarda, sadok yoki boshqalarda qo'llash quyidagicha amalga oshiriladi:

Hovuz va sadoklarda dori preparatlari sifatida organik bo'yoqlar (malaxit yashil dorisi va boshqalar), suv havzalarida formalin eritmasi (1:5000 ; 1:10 000), faol xlor (1mg/l), ikki komponentli aralashma (faol xlor 1mg/l va kaliy permanganat 10g/l) hamda natriy xlor eritmasi qo'llanilad. 1-2 kundan so'ng baliqlar holati mikroskopik tekshirish orqali kuzatiladi.^[1]

Akvarium baliqchiligi uchun baliqlarni davolash alohida idishlarda kaliy permanganat qo'llaniladi, davolash kursi 7 kunni tashkil qiladi.

Oldini olish va qarshi kurash choralar. Hovuzlarni dizenfeksiya qilish (xlor yoki so'ndirilmagan ohak yordamida), uskunalar va boshqa asboblarni tozalash kerak. Xilodonellyozning oldini olish uchun baliqlarga doimiy profilaktik ishlov berish, baliqlarning standart vazni va semizligiga e'tibor berib o'stirish; baliqchilikda ishlatiladigan asbob-uskunalarini ishlatishda sanitariya qoidalariga rioya qilish kerak .

Xulosa.

Baliqlarda uchraydigan turli xildagi cassalliklarni o'rganish, ularning kelib chiqishi, tarqalishi, ularni oldini olish va davolash usullarini amaliyatga tadbiq etish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Kasalliklarni davolash va oldini olish usullarini amaliyatga qo'llash - baliq yetishtiruvchi xo'jaliklardagi mavjud yoki keyinchalik kelib chiqishi mumkin bo'lgan turli kasalliklarni o'z vaqtida samarali davolash, ularning tarqalishiga qarshi kurash va shu orqali xo'jalikka kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy zararlarning oldini olish imkonini beradi.

Shu sababli ixtiologlar bu masalaga jiddiy qarashlari, sohani rivojlantirish uchun tinimsiz izlanishlar olib borishlari lozim. Shu bilan birga baliq yetishtiruvchi xo'jaliklar bilan doimiy aloqada bo'lislari va o'zaro ma'lumotlar almashishi yaxshi natija beradi .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.E.Safarova, D.A.Azimov "Baliq cassalliklari" Toshkent – 2020 103-b.
2. P.Haqberdiyev "Umumiyo ixtiologiya" Toshkent-2013. 82-133-b.
3. R.Morrison "Baliqlarda qanday cassalliklar mavjud" ilmiy maqola-2021. 3-b.
4. www.azkurs.org